

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

«OILA VA GENDER» ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

XUSANOV SAMARIDDIN MAXMADAMINOVICH

**SHAXSDA MEHNAT MOTIVATSIYASI SHAKLLANISHINING IJTIMOYIY-
PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
psychological sciences**

Xusanov Samariddin Maxmadaminovich Shaxsda mehnat motivatsiyasi shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlari.....	5
Хусанов Самариддин Махмадаминович Социально-психологические детерминанты формирования трудовой мотивации личности	23
Xusanov Samariddin Maxmadaminovich Socio-psychological determinants of the formation of work motivation in a person	45
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works.....	49

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

«OILA VA GENDER» ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

XUSANOV SAMARIDDIN MAXMADAMINOVICH

**SHAXSDA MEHNAT MOTIVATSIYASI SHAKLLANISHINING IJTIMOYIY-
PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/P524 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya «Oila va gender» ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) ilmiy kengash veb-sahifasida www.tdpu.uz va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalidagi (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Abduramanov Xamid Xudaybergenovich**
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: **Karimova Vasila Mamanosirovna**
psixologiya fanlari doktori, professor

Safarov Dilmurod Xalimovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot: **Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy Pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025- yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2025- yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2025- yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A.Akramova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, psixologiya fanlari
doktori (DSc), professor

N.B.Atabayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, psixologiya
fanlari doktori (DSc), professor

Z.T.Nishanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, psixologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mehnat motivatsiyasining pasayishi keng tarqalgan muhim fenomenlardan biri bo'lib, bu bir nechta ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik omillar bilan bog'liq. Jahon Iqtisodiy Forumi prognozlariga ko'ra, «2025-yilga borib yangi texnologiyalar mehnat bozoridan 85 million ish o'rinlarini siqib chiqaradi va 100 millionga yaqin yangi ish o'rinlarini yaratadi, ular esa eskilari qanchalik tez yo'q bo'lib ketishi bilan solishtirganda ancha sekin paydo bo'ladi. Kelgusi yillarda ortiqcha ish o'rinlari 15 % dan 9 % ga kamayadi, yangi kasblar bo'yicha ish o'rinlari esa 13,5 % gacha ko'tariladi»¹. Bu borada bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar va tashkilotlar birlamchi muvaffaqiyatini ta'minlovchi shaxsning mehnat motivatsiya shakllaridan unumli foydalanishi masalalariga e'tibor qaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu talab esa shaxsda mehnat motivatsiyasi shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlari muammosini dolzarb ahamiyatli sifatida ilmiy tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida shaxs mehnat faoliyati motivatsiyasi shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlarini tadqiq etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Hozirgi globallashtirish jarayonlarida mehnatni ijobiy motivatsiyalash xodimlarning kasbiy muvaffaqiyat hamda mehnat samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biri bo'lganligi bois, iqtisodiy o'zgarishlarni zamonaviy ilm-fan mehnat bozorlarida keskin ravishda ishchilar uchun mehnat sharoitlarini yaxshilashni taqozo etishi takidlanmoqda. Bu jarayonlarning asosini shaxsning mehnat motivatsiyasidagi dinamik o'zgarishlar tashkil qilgani bois, aynan mehnat motivatsiyasi shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda insonlardagi mehnat motivatsiyasi samaradorligini oshirishga katta ahamiyat berilib, zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «Iqtisodiy faol aholining 9,6 foiz, ya'ni 1441 856 nafari ishsiz hisoblanadi»². Bu ko'rsatkichga yurtimizda mehnat qobiliyatiga ega lekin ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotganlar, tug'ruq ta'tilidagi yoki 2 yoshgacha bolalarini parvarishlayotgan ayollar va ishlashni xohlamaydigan yoki darhol ishga joylashishga imkoniyati yo'q aholini o'z ichiga oladi. Ammo hozirgi kunda davlat tomonidan olib borilayotgan ishsizlikni tugatish bo'yicha keng chora-tadbirlarga qaramasdan ishsizlik ko'rsatkichlariga mehnat motivatsiyasi yetishmayotgan mehnatga layoqatli shaxslar ham yuqoridagi ko'rsatkichning sezilarni qismini tashkil qilishi salbiy holatni ifoda etadi. Bu borada mehnat motivatsiyasi muhim hayotiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanishini inobatga olib, insonlardagi mehnat motivatsiyasi bo'yicha yangicha ilmiy yondashuvni va zarur ishlanmalarni yaratishda mazkur mavzu davr talabi sifatida ilmiy tadqiq etish uchun zarur asos bo'lib xizmat qiladi.

¹Мировой рынок труда в условиях глобализации: тенденции развития и проблемы регулирования. b25-song-bin.pdf.

² O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. Mehnat bozori vaziyatiga oid ma'lumotlar (mehnat resurslari balansi) <https://data.egov.uz/data/61025aa22a2e256d868e82ef>

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-mayda O‘RQ-837-son «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida», 2019-yil 2-sentabrdagi O‘RQ-562-son «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O‘zbekiston – 2030» Strategiyasi to‘g‘risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2023-yil 12-iyundagi PF-93-son «Kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2021-yil 11-avgustdagi PF-6277-son «Kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish hamda kambag‘allik bilan kurashish ko‘lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2021-yil 3-dekabrda PF-29-son «Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida»gi Farmonlari, 2018-yil 14-iyuldagi PQ-3856-son «Aholi bandligini ta‘minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-330-son «Kambag‘allikdan farovonlik sari» dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risi Qarorlar, O‘zbekiston Respublikasining O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-avgustdagi 504-son «Hududlarda «mahallabay» ishlash asosida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining doimiy daromad manbalarini ko‘paytirish orqali kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, 2022-yil 11-dekabrda 252-son «O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiyalar ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori hamda faoliyatga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston psixolog va iqtisodchi olimlardan Q.Abdurahmanov, M.G.Davletshin, E.G‘.G‘oziyev, O.E.Hayitov, P.I.Ivanov, N.G.Kamilova, V.M.Karimova, Z.T.Nishanova, A.I.Rasulov, B.M.Umarov va boshqalar shaxsda mehnat motivatsiyasi psixologiyasiga doir tadqiqotlarni ilmiy tadqiq etishgan turli-tuman nazariy yondashuvlar asosida o‘rganishgan. Va olimlardan D.N.Arziqulov, R.Z.Asomova, F.X.Sirojiddinova, U.B.Sultonov va boshqalar tomonidan mehnat motivatsiyasining ko‘rinishlari, uning shaxsda namoyon bo‘lishi bo‘yicha yana bir qancha maxsus izlanishlar ham olib borilgan bo‘lib, ushbu tadqiqotlarda mehnat faoliyati shaxsning farovon turmush kechirishiga ta’sir etuvchi eng muhim omillardan biri sifatida talqin qilingan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari olimlari D.A.Ashirova, A.K.Gastev, O.E.Grigor, P.P.Muxortov, D.N.Savichev tomonidan shaxsning mehnat motivatsiyasi haqidagi turli nazariyalarni o'rganish bo'yicha bir necha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa, V.N.Belkin, E.A.Klimov A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn va boshqa olimlar odamlarni boshqarish muammosining evolyutsiyasi va tashkilot xodimlarining mehnat motivatsiyasining rivojlanishini hamda mehnatni ilmiy tashkil etish muammolariga, ishlab chiqarish jarayonida odamlarning munosabatlari o'rganishga va xususan, xodimlarning mehnat motivatsiyasini aniqlashga beqiyos hissa qo'shganlar.

Xorijiy olimlardan H.Hekxausen, F.Hertsberg, A.Makkelland, A.Maslou, E.Meyo, E.Lokk, V.Vroom va boshqalarning nazariyalarida faoliyat nazariyasining inson motivatsiyasi qonuniyatlari haqidagi g'oyalarni rivojlantirishga qo'shgan hissasi, insonning ehtiyoj-motivatsion sohasi tavsiflanganligidan iborat edi. Ularning ishlari faoliyat va mehnat motivatsiyaning asosiy mexanizmlari ochib berilganligi, tushuntirilganligi bilan nihoyatda kerakli manbaalar hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsion tadqiqot ishi «Oila va gender» ilmiy-tadqiqot institutining JHBL 105-sonli «Boqimandalik kamaytirish-kambag'allikni bartaraf etishni asosi sifatida» mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2023-2024 yy).

Tadqiqotning maqsadi shaxsda mehnat motivatsiyasi shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlarini empirik jihatdan tadqiq etgan holda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

shaxsda mehnat motivatsiyasi namoyon bo'lishining etnomadaniy, jins hamda ijtimoiy omillari differentsiatsiyasiga ko'ra mehnatga munosabat shakllanishining psixologik atributlarini aniqlash;

shaxsdagi mehnat motivatsiyasining takomillashishiga ta'sir etuvchi omillarning psixologik namoyon bo'lish darajasini aniqlash;

mehnat motivatsiyasi namoyon bo'lishining jins tafovutini differentsiatsiya qilish asnosida mehnat motivatsiyasining psixologik determinantlarini aniqlash;

shaxsda mehnat motivatsiyasi namoyon bo'lishining ijtimoiy omil, status farqlanishiga ko'ra tafovutlarni aniqlash asnosida uslubiy ko'rsatma va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Buxoro, Sirdaryo, Namangan viloyatlarida istiqomat qilayotgan mehnat layoqatiga ega bo'lgan 18-60 yosh oralig'idagi 314 nafar ish bilan band va ish bilan band bo'lmagan respondentlar jalb qilingan.

Tadqiqotning predmeti shaxsda mehnat motivatsiyasi shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlari hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishida «Shaxsda mehnat motivatsiyasi namoyon bo'lishini o'rganishga qaratilgan» ijtimoiy-psixologik so'rovnoma (X.Abduramanov va S.Xusanov), «Hayot mazmuni yo'nalganligi testi» (D.A.Leontev), «Muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi» (Elers), «Shaxs intilish darajasi»ni aniqlash testi (V.K.Gerbachevskiy), «Subyektiv nazorat darajasini aniqlash» (Dj.Rotter), «Karyera motivatsiyasi» so'rovnoma (A.Noel,

R.Noë, J.Bachhube, Ye.A.Mogilevkin) metodikalaridan foydalanilgan. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik-statistik metodlardan Mann-Uittni – U mezoni, Kruskal-Uollis–H mezoni hamda Spirmenning noparametrik korrelyatsion-r koeffitsienti orqali tekshirildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

shaxsda mehnat motivatsiyasi namoyon bo'lishining etnomadaniy, jins hamda ijtimoiy omillari differentsiyasiga ko'ra «hayotiy maqsadlar», «hayotiy jarayonlar shaxsning mehnatga bo'lgan ijobiy munosabati shakllanishining psixologik atributlari bo'lgani hisobiga muvaffaqiyatga bo'lgan motivatsiyaning o'rta darajasi mehnat samaradorligining birlamchi indikativ belgisi ekanligi isbotlangan;

shaxsdagi mehnat motivatsiyasining takomillashishida salomatlik bo'yicha internallikning integral ta'siri natijasida mehnat jarayonida salomatlikka e'tiborning kamligi mehnat motivatsiyasining yuqori bo'lish ehtimoli pasaytirsam, shaxslararo munosabatdagi internallik ko'rsatkichning pastligi esa shaxsda jamoaviy muhitdan qoniqmaslik, kollegial hamkorlik prinsipining mehnat faoliyatida yaqqol aks ettirmasligini psixologik namoyon bo'lishi dalillangan;

mehnat motivatsiyasi namoyon bo'lishining jins tafovutiga ko'ra erkak va ayollarda hayot mazmunini anglaganligi, hayotiy maqsadlarning mavjudligi, hayotdan qoniqishi, o'zini kuchli va faol hamda o'z hayotini nazorat qiluvchi va qaror qabul qiluvchi sifatida ko'rishi psixologik mehnat samaradorligi determinatori bo'lishi isbotlangan;

shaxsda mehnat motivatsiyasi namoyon bo'lishining ijtimoiy omil, status farqlanishiga ko'ra muvaffaqiyatga intilishning asosiy sababi – o'z hayotini yaxshilash, maqsadlar sari yuksalish, xavfsizlikni ta'minlash va o'zini rivojlantirish ekani dalillanib, ishlovchilarda motivatsiya ko'pincha mavjud ish joyidagi yutuqlarni ko'rsatish va ishga sodiqlik orqali namoyon bo'lishi, ishsizlarda esa yangi imkoniyatlar yaratish, ish topish va yangi ko'nikmalarni egallash orqali ifodalanishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mehnat motivatsiyasiga doir mehnat va motivatsiyaning ijtimoiy-psixologik determinantlari tizimlashtirilgan;

shaxsdagi mehnat motivatsiyasi namoyon bo'lishini tadqiq etuvchi psixodiagnostik vositalar tizimlashtirilgan;

shaxslarda mehnat motivatsiyasini oshirish bo'yicha kognitiv, emotsional, oriental komponentlarni kombinatsiyalashtirilgan model takomillashtirilgan;

shaxsda mehnat motivatsiyasini oshiruvchi omillar bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotda olingan natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda foydalanilgan metodikalarning bevosita xalqaro darajada ishonchliligi, psixometrik hamda psixodiagnostik talablarga to'la rioya etilganligi sababli tanlab olingan, shuningdek, to'plangan ma'lumolarning ishonchliligi, tadqiqot obyektining respublikamiz hududida tanlanganligi, olingan ma'lumotlar matematik-statistik mezonlar asosida psixodiagnostik ishonchlilikni topganligi, xulosa va takliflarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalar tahlilining vakolatli organ tomonidan tasdiqlanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqotda taqdim etilgan taklif, tavsiya va xulosalar psixologiya, etnopsixologiya, kasb psixologiyasi, mehnat psixologiyasi va motivatsiyasi kabi fanlarning asosiy mavzularidan bo‘lgan shaxsda mehnat motivatsiyasining ijtimoiy-psixologik jihatlarini o‘rganishga yo‘nalganligi bilan shu sohada ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilarning ilmiy faoliyatiga ma‘lum darajada hissa qo‘shadi. Shuningdek rahbar-xodimlar uchun o‘zlari yetakchilik qilayotgan mehnat jamoasining individual va jamoaviy mehnat motivatsiya holatlariga to‘g‘ri pragnoz qilishga amaliy imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan empirik ma‘lumotlar asnosida oliy ta‘lim muassasalarida bakalavriat va magistraturada «Boshqaruv psixologiyasi», «Ijtimoiy psixologiya», «Etnopsixologiya», «Mehnat psixologiyasi», «Umumiy psixologiya», «Psixoterapiya va konsultativ psixologiya» kabi o‘quv kurslarida ma‘ruza va seminar mashg‘ulotlarini olib borishda hamda ushbu mavzu doirasida yangi izlanishlarni amalga oshirishda qo‘llash mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Shaxsda mehnat motivatsiyasi shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlari bo‘yicha dissertatsiya tadqiqoti natijalari asosida:

shaxsda mehnat motivatsiyasi namoyon bo‘lishining etnomadaniy, jins hamda ijtimoiy omillari differentsiatsiyasiga ko‘ra “hayotiy maqsadlar”, “hayotiy jarayonlar shaxsning mehnatga bo‘lgan ijobiy munosabati shakllanishining psixologik atributlari bo‘lgani hisobiga muvaffaqiyatga bo‘lgan motivatsiyaning o‘rta darajasi mehnat samaradorligining birlamchi indikativ belgisi ekanligi isbotlangan yangiliklar takliflar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-403 son buyrug‘i bilan “Ijtimoiy psixologiya” moduliga kiritilgan (O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-403 son ma‘lumotnomasi). Natijada shaxsda mehnat motivatsiyasi namoyon bo‘lishining etnomadaniy, jins hamda ijtimoiy omillari differentsiatsiyasining indikativ belgilari aniqlashtirilgan;

shaxsdagi mehnat motivatsiyasining takomillashishida salomatlik bo‘yicha internallikning integral ta‘siri natijasida mehnat jarayonida salomatlikka e‘tiborning kamligi mehnat motivatsiyasining yuqori bo‘lish ehtimoli pasaytirsam, shaxslararo munosabatdagi internallik ko‘rsatkichning pastligi esa shaxsda jamoaviy muhitdan qoniqmaslik, kollegial hamkorlik prinsipining mehnat faoliyatida yaqqol aks ettirmasligini psixologik namoyon bo‘lishi dalillangan yangiliklar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-403 son buyrug‘i bilan “Ijtimoiy psixologiya” moduliga kiritilgan (O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-403 son ma‘lumotnomasi). Natijada shaxsdagi mehnat motivatsiyasining takomillashishida ustuvor bo‘luvchi ijtimoiy-psixologik determinantlar sistemalashtirilgan;

mehnat motivatsiyasi namoyon bo‘lishining jins tafovutiga ko‘ra erkak va ayollarda hayot mazmunini anglaganligi, hayotiy maqsadlarning mavjudligi, hayotdan qoniqishi, o‘zini kuchli va faol hamda o‘z hayotini nazorat qiluvchi va

qaror qabul qiluvchi sifatida ko‘rishi psixologik mehnat samaradorligi determinatori bo‘lishi isbotlangan ma‘lumotlar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-403 son buyrug‘i bilan “Ijtimoiy psixologiya” moduliga kiritilgan (O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-403 son ma‘lumotnomasi). Natijada shaxsda mehnat motivatsiyasi namoyon bo‘lishining gender differentsiyasiga ta‘sir qiluvchi omillar tizimlashtirilgan;

shaxsda mehnat motivatsiyasi namoyon bo‘lishining oilaviy hayot dinamikasi, ijtimoiy omil, status farqlanishiga ko‘ra muvaffaqiyatga intilishning asosiy sababi – o‘z hayotini yaxshilash, maqsadlar sari yuksalish, xavfsizlikni ta‘minlash va o‘zini rivojlantirish ekani dalillanib, ishlovchilarda motivatsiya ko‘pincha mavjud ish joyidagi yutuqlarni ko‘rsatish va ishga sodiqlik orqali namoyon bo‘lishi, ishsizlarda esa yangi imkoniyatlar yaratish, ish topish va yangi ko‘nikmalarni egallash orqali ifodalanishi aniqlanganligiga oid ilmiy yangiliklar “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot institutining “Boqimandalik kamaytirish-kambag‘allikni bartaraf etishni asosi sifatida” mavzusida amaliy loyiha rejasiga kiritilgan (“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 15-noyabrdagi №01-09/2385-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada shaxsda mehnat motivatsiyasi namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik omillari turkumlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqotning asosiy natijalari bo‘yicha 14 ta ilmiy maqola chop ettirilgan bo‘lib, ulardan 4 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining (PhD) dissertatsiyalari uchun tavsiya etgan jurnallar (1 tasi xorijiy) da chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, to‘qqizta paragraf, bob bo‘yicha xulosalar, umumiy xulosa, amaliy takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, hamda ilovalardan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 134 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalar belgilangan, tadqiqot usullari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotda tatbiq etilganlik holati, ilmiy nashrlarda e‘lon qilinishi, dissertatsion ishning tuzilishi yuzasidan ma‘lumot keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Shaxsda mehnat motivatsiyasi ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar predmeti sifatida**» deb nomlanib, ushbu bobda shaxs va mehnat faoliyati xorij olimlari tomonidan o‘rganilganligi, MDH olimlari tomonidan mehnat motivatsiyasining o‘rganilganligi hamda O‘zbek psixologlari tomonidan shaxs va mehnat faoliyatini talqin etilishi bayon etilgan. «Muvaffaqiyatli odamlar

tabiatan iste'dodli emas; ular faqat qattiq mehnat qilishadi, keyin esa maqsadga erishadilar» degan mashhur iborasi bilan mashhur G.K. Nielson mehnat motivatsiyasini ko'tarishning asosiy usullarini aniqladi:

1. Adolatli mukofotlar tizimini joriy etish (Fair Reward System) Nielsonning fikricha, xodimlar o'z mehnatlari uchun adolatli va to'g'ri mukofot olishlari kerak. Bu mukofotlar nafaqat moliyaviy, balki ma'naviy, ijtimoiy va kasbiy rag'batlarni ham o'z ichiga oladi.

2. Shaxsiy va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratish (Personal and Professional Development Opportunities) Mehnat motivatsiyasini oshirish uchun xodimlarga o'z malakalarini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratish zarur. Nielson shaxsiy va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari, ya'ni o'qish, treninglar, kurslar va yangi ko'nikmalarni o'rganish imkoniyatlari xodimlarning ishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

3. Ish joyidagi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash (Social Support at the Workplace) Nielson ishchilar o'rtasida do'stona munosabatlar va qo'llab-quvvatlash muhitining shakllanishi, jamoa ruhiyatining yuksalishi ishchilarning qoniqishini oshiradi va motivatsiyani kuchaytiradi.

4. Ishning ma'naviy qiymatini oshirish (Enhancing the Spiritual Meaning of Work) Nielsonning yondashuvlaridan biri ishning ma'naviy qiymatini oshirishga qaratilgan. Ishchilarga o'z ishlarining ijtimoiy ahamiyati, tashkilotga qo'shgan hissasi haqida ma'lumot berish, ularning mehnatini qadrlash va tan olish ish motivatsiyasini kuchaytiradi.

5. Ish joyidagi muvozanat va stressni boshqarish (Work-Life Balance and Stress Management) Muallif ish va shaxsiy hayot o'rtasidagi muvozanatning mehnat motivatsiyasiga ta'sirini ta'kidlaydi. Agar ishchilar o'z shaxsiy hayotlariga yetarlicha vaqt ajrata olishsa, bu ularning ishdagi stressni kamaytiradi va motivatsiyani oshiradi. Shuningdek, stressni boshqarish, ish joyida muvozanatli muhit yaratish ham samarali motivatsiya usuli hisoblanadi.

6. Xodimlarning ishtirokini ta'minlash (Employee Involvement) Xodimlarning qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etishi motivatsiyani oshiradi. Nielson xodimlarni tashkilotning strategik va operativ qarorlarini qabul qilishda ishtirok etishga undash, ularni tashkilotdagi jarayonlarga jalb etish orqali ishga bo'lgan qiziqishni va motivatsiyani oshirishni tavsiya qiladi.

7. Rahbarlarning qo'llab-quvvatlashi va motivatsiya (Supportive Leadership and Motivation) Yaxshi rahbarlar xodimlar uchun motivatsiya manbai bo'la olishadi. Nielson rahbarlarning xodimlarni qo'llab-quvvatlash, ularni rag'batlantirish, yordam berish va ularga yetarli resurslarni taqdim etish orqali motivatsiyani oshirishga alohida e'tibor qaratadi.

8. Ishning turli xil xususiyatlari (Job Characteristics) Ishning o'ziga xos xususiyatlari (masalan, ishning qiziqarli bo'lishi, yangi ko'nikmalarni talab qilishi, maqsadga yo'naltirilganligi) xodimlarning motivatsiyasiga ta'sir qiladi.


Zamonaviy yondashuvlarda nazoratning subyektiv va intuitiv usullarini hisobga olgan holda ko'proq darajada yangi talablar (mezonlar) ilgari suriladi: birlamchi fiziologik mezonlar; o'zaro ta'sirning psixo-ijtimoiy mezonlari; dam olish uchun tanaffuslarni belgilaydigan psixosotsial mezon. Shaxsning mehnat faoliyatidagi

motivlar va motivlarning o'zaro ta'siri xodimlar mehnatini, shu jumladan uning bandligini boshqarishning ilmiy asosidir. Motivatsiya qanday maqsadlarni ko'zlashiga qarab, motivatsiyaning ikki turini nomlash mumkin: tashqi va ichki. Tashqi motivatsiya - bu ma'muriy ta'sir yoki boshqaruv jarayonining bir turi: menejer ishni bajaruvchiga ishonib topshiradi va u buni amalga oshiradi. Ushbu turdagi motivatsiya bilan menejer qaysi motivlar ma'lum bir xodimni ishni samarali va o'z vaqtida bajarishga undashi mumkinligini bilishi kerak. Bu oddiy ish haqi yoki bonus, yoki oddiy maqtov yoki boshqa turdagi ma'naviy rag'batlantirish bo'lishi mumkin. Ichki motivatsiya murakkabroq jarayon bo'lib, shaxsning ma'lum motivatsion tuzilishini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Bunda xodim shaxsining kerakli sifatlarini oshirish va ishning monotonligini kamaytirish kabi salbiy omillarni zaiflashtirishning psixologik yo'li topilishi kerak.

«Shaxs faoliyatining ijtimoiy-psixologik determinatlarini empirik o'rganilganligi» sifatida nomlanuvchi dissertatsiyaning ikkinchi bobida shaxs, faoliyat hamda motivatsiyaning o'rganish usullari, shaxsda mehnat motivatsiyasini o'rganishning psixologik tavsifi hamda shaxsda mehnat motivatsiyasi namoyon bo'lishiga ta'sir-etuvchi ijtimoiy, jins hamda etnomadaniy omillar tahlil etilgan. Hozirgi kunda mehnat motivatsiyasini oshirish zamonavi psixologiyaning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Biz tadqiqot ishimizda foydalanish uchun tanlagan metodlar, ular yordamida olingan natijalar talqini to'g'ridan – to'g'ri tadqiqotimizning metodologik pozitsiyasiga ta'sir qilgani bois, ushbu psixologik hodisani empirik o'rganishga kirishishdan avval bunday tadqiqot yo'nalishining tanlanishi qanday metodologik qarashlarga asoslanishini ko'rsatib o'tishni zarur deb topdik. Mehnat motivatsiyasi determinatsiyasi shaxs rivojlanishining murakkab fenomeni sifatida turli ilmiy-nazariy yondashuvlar nuqtai nazaridan turlicha tushuntiriladi. Ilmiy bilishning eng umumiy metodologik tamoyillari – dialektika tamoyillari (taraqqiyot, umumiy o'zaro bog'lanish va b.) dan tashqari tadqiqotimizning xususiy metodologiyasini – determinizm, tizimlilik tamoyili, shaxs nuqtai nazaridan yondashish tamoyillari, shuningdek, Maslou ehtiyojlar ierarxiyasi, Kleyton Alderferning ERG nazariyasi, Devid Makkelandning Ortirilgan ehtiyojlar nazariyasi, Motivatsiyaning asosiy protsessual nazariyasi va A.N.Leontevning subyekt faoliyati prinsipi nazariyalari tashkil etadi. Tadqiqotimizning ushbu qismida mazkur nazariy yondashuvlarning asosiy g'oyalari va tamoyillari tadqiqot vazifalari doirasida qanday tarzda ro'yobga chiqarilishi xususida mulohaza yuritiladi.

A.B.Hayitov, G.A.Adilova, N.U.Arabovlar muallifliklarida Personal motivatsiyasi o'quv qo'llanmasida iqtisodiy jihatdan mehnat motivatsiyasini boshqarish tizimlarini tahlil qilishgan. Hamda insonni mehnat motiviga ta'sir qiladigan unsurlarni klassifikatsiyalaganlar (1-rasmga qarang).

Shuningdek mualliflar ushbu o'quv qo'llanmalarida xodimlarni motivatsiyalashga ta'sir qiladigan turli xil jarayonlarni ham tizimli tarzda shaklga solganlar.



1-rasm. Xodimlarni boshqarish tizimida motivatsiyalashni amalga oshirish shakllari

Ularning fikricha rahbar eng avvalo o‘z xodimlarini ehtiyojlarini to‘g‘ri baholash qobilayatiga ega bo‘lishi va ularning motivatsiyasiga ta‘sir qiladigan omillarni aniqlashi kerak bo‘ladi. So‘ngi bosqichda esa muntazam ravishda ta‘sir etish samaradorligini baholab borishin nazarda tutishganlar

1-jadval

Shaxsda ishdan qoniqish darajasining namoyon bo‘lishi natijalari, (% da)

Savol	Baholangan ko‘rsatkich	Ishlilar (%)	Ishsizlar (%)
1	Ish haqidani qoniqish	48%	15%
2	Ish jadvalidan qoniqish	65%	—
3	Ish xilma-xilligidan qoniqish	52%	—
6	Ishning qobiliyatlarga mosligi	60%	35% (oldingi ishdan)

Biz tomonimizdan 314 nafar respondentda mehnat motivatsiyasini o‘rganishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma ham o‘tkazilgan bo‘lib unda quyidagi natijalar qayd etildi. 1-jadvalda ishlilar orasida ish sharoitlari (65%) va ish mazmunidan (52%) qoniqish darajasi yuqori. Ishsizlar ish haqidani qoniqishsizligiga (15%) ko‘proq urg‘u berishganligi keltirilgan. Bundan ma‘lum bo‘ladiki, shaxsda mehnat motivatsiyasining tarkibiy komponentlari – ish jadvali, ish xilma-xilligi, o‘z potensialiga ish mazmunining mosligi hamda maosh hisoblanadi.

2-jadval**Mehnat faoliyati bo'yicha kelgusidagi rejalarga oid niyatlar, (% da)**

Reja	Ishlilar (%)	Ishsizlar (%)
Lavozimini saqlab qolmoqchi	58%	—
Lavozimini oshirmoqchi	22%	—
Tashkilotni o'zgartirmoqchi	13%	—
Kasbni o'zgartirmoqchi	7%	60%
Ish topmoqchi (ishsizlar)	—	40%

Ishsizlarning 60% i kasbni ham o'zgartirishga tayyor; bu qayta yo'nalish istagidan dalolat beradi. Ishlilar esa ko'proq barqarorlikni tanlagan. Kasbni o'zgartirish bo'yicha ishli qatlamning 7% ma'qullaganlikni ifodalagani ularda mehnat sharoitlaridan, ish mazmunidan qoniqish kamroq darajada shakllanganligini anglatadi. Ishsizlar esa ko'proq maoshga ega bo'lish hamda yangi ishda o'zini sinab ko'rish uchun kasbni o'zgartirishni belgilagan (2-jadvalga qarang).

3-jadval**Ish faoliyatidagi eng muhim xususiyatlarning namoyon bo'lishi, (% da)**

Xususiyat	Ishlilar (%)	Ishsizlar (%)
Yuqori ish haqi	72%	90%
Kasbiy o'sish imkoniyati	55%	40%
Qulay ish sharoiti	45%	60%
Mustaqillik	33%	15%
Uy-joy bilan ta'minlanish	28%	50%

Ish faoliyatidagi muhim xususiyatlar bizda mehnat motivatsiyasining asosiy determinantlarini aniqlash imkonini beradi. Unga ko'ra, ish bilan band bo'lgan shaxslar uchun mehnat faoliyatidagi asosiy xususiyatlar sifatida yuqori ish haqi (72%), kasbiy o'sish imkoniyati (55%), qulay ish sharoiti (45%), mustaqillik (33%) uy-joy bilan ta'minlanish (28%); ish bilan band bo'lmagan shaxslar uchun mehnat faoliyatidagi asosiy xususiyatlar sifatida yuqori ish haqi (90%), kasbiy o'sish imkoniyati (40%), qulay ish sharoiti (60%), mustaqillik (15%) uy-joy bilan ta'minlanish (50%) tanlanib, yuqori ish haqi mehnat motivatsiyasining asosiy determinant sifatida qolmoqda (3-jadvalga qarang).

D.A.Leontevning «Hayot mazmuni yo'nalganligi» metodikasining sinaluvchilarning ishli yoki ishsizliga ko'ra farqlari solishtirilganida hayotning umumiy mazmuni ko'rsatgichida ishlilarda o'rtasha rang qiymati 171,95 ni, ishsizlarda 131,44 ni tashkil etdi. ($U=8393,000$; $p<0,01$) Hayotdan qoniqqanligi nuqtayi nazaridan, o'zini boshqarish hayotiy sohalarida, maqsad quyish nuqtayi nazaridan jihatdan ishlilarda ishonchli farqlar chiqishi tabiiy jarayon edi va bu ularning moddiy tamondan ta'minlanganligi, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan sug'urtalanganligini anglab etganligi bilan izohlanishi mumkin. Shuningdek, ish bilan

bandlar o'z hayotlarini maqsadga yo'naltirilgan va mazmunli deb his qilishadi, ishsizlar esa, ko'pincha o'zlarining hayotlarida maqsad va mazmunni yo'qotganliklarini sezishlari mumkin. Bu farq, ish bilan band bo'lmagan shaxslarning ruhiy holatini, psixologik ta'sirlar va hayotdagi qiyinchiliklar bilan bog'lash mumkin.


4-jadval

D.A.Leontevning «Hayot mazmuni yo'nalganligi» metodikasining respondentlarning bandlik omiliga ko'ra natijalari, (N-314)

№	Shkalalar	O'rtacha rang		Statistik qiymat	
		Ishlilar (N-202)	Ishsizlar (N-112)	U (Mann-Uittni – U mezoni)	p (ishonchlilik darajasi)
1	Hayotning umumiy mazmuni	171,95	131,44	8393,000	0,000**
2	Hayotiy maqsadlar	173,28	129,04	8124,500	0,000**
3	Hayot jarayoni	168,38	137,88	9114,000	0,004*
4	Hayot natijaviyligi	169,83	135,26	8821,000	0,001**
5	Nazorat lokusi	167,88	138,78	9215,000	0,006*
6	Hayot boshqaruvchanligi	173,18	129,22	8144,500	0,000**

Izoh: * p≤0,05; ** p≤0,01

4-jadvalga ko'ra hayotiy maqsadlar shkalasida ishlilarda o'rtacha rang qiymati 173,28 ni, ishsizlarda 129,04 ni tashkil etdi. (U=8124,500; p≤0,01). Ishlilarda hayotiy maqsadlar maqsadga intiluvchanlikni, sinaluvchi hayotida uning hayotiga mazmun, yo'nalganlik beruvchi va davriy istiqbolini ko'rsatuvchi kelajak maqsadlari bor yoki yo'qligi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ham ishlilarda hayotiy maqsadlar yuqori chiqqan. Bunga sabab esa ishlilarda o'z oldiga qo'ygan aniq maqsadlari bo'ladi. Bu maqsadlar jamiatda obro'- e'tibor qozonish, farovon turmush-tarziga erishish, farzandlariga yaxshi shart-sharoit yaratib berish kabi hayotiy maqsadlar bilan sodir bo'ladi. Ishsizlarda esa bu tendensiya biroz boshqacha yani, o'z oldiga quygan maqsadlarning tarqoqligi ba'zi hollarda umuman past darajada ekanligi bilan ta'riflanadi. Bundan tashqari maqsadlarning pastligi ularning ma'lum turdagi faoliyatni uddalay olmaganligiga ham bog'liq bo'ladi.



2-rasm. «Intilish darajasini aniqlash metodikasi» bo'yicha sinaluvchilarning jinsiga ko'ra statistik farqlari

Tashabbuskorlik shkalasida erkaklarda o'rtasha rang qiymati 140,12 ni, ayollarda 169,15 ni tashkil etdi ($U=9654,000$; $p\leq 0,01$). Ayollarda tashabbuskorlik motivatsiyasining yuqori bo'lishi bir nechta omillar ijtimoiy, madaniy, psixologik va iqtisodiy faktorlar – natijasidir. Ayollar o'zlarini jamiyatda va oilada faollashtirish, yangi imkoniyatlar yaratish va o'z maqsadlariga erishish uchun tashabbuskorlikni ko'rsatishadi. Bu, o'z navbatida, ularning shaxsiy va professional rivojlanishiga yordam beradi. Ayollar o'zlarining jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash, oila va ijtimoiy hayotdagi rollarini kengaytirish uchun tashabbus ko'rsatishga moyilroq bo'lishlari mumkin. Bu holat, ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarda o'zlarining imkoniyatlarini kengaytirishga bo'lgan istak va harakatlarini aks ettiradi. Bu motivatsiyaning yuqori bo'lishi ayollarning jamiyatda o'z o'rnini yanada mustahkamlashga intilishlarini va buning uchun ularga tashabbuskorlik ko'rsatish zaruriy ehtiyoj sifatida qaraladi (2-rasmga qarang).

Dissertatsion tadqiqot ishining uchinchi bobi «**Shaxsda mehnat faoliyatidan qoniqish motivatsiyaning empirik tadqiq etilishi**» deb nomlanib, unda hayot mazmuni yo'nalganligining mehnat motivatsiyasiga ta'sirining psixologik aspektlari, muvaffaqiyatga intilish motivini shaxs mehnat motivi bilan bog'liqlik jihatlari va shaxsdagi mehnat motivatsiyasi samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi korrelyatsion bog'liqliklar tahlili bayon qilingan. D.A.Leontevning «Hayot mazmuni yo'nalganligi» metodikasining «V.Gerbachevskiyning «Intilish darajasini aniqlash» metodikasi bilan korrelyatsion aloqadorligini tekshirganimiz muhim natijalarni bilib olishimizga sabab bo'ldi (5-jadvalga qarang). Ichki motiv va hayotiy maqsadlar motivatsiyasilari musbat aloqani namoyon etishgan ($r=0,224$; $p\leq 0,01$). Ichki motivatsiya va hayotiy maqsadlar o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik shuni anglatadiki, yuqori ichki motivatsiya hayotiy maqsadlarni aniqroq shakllantirish va ularga erishishga yordam beradi.

Masalan, ichki motivatsiya ko'pincha insonlar qadriyatlarini va istaklarini chuqur tushunishdan kelib chiqadi, bu ularga haqiqatan ham muhim bo'lgan hayotiy maqsadlarni ifoda etishga yordam beradi. Yuqori ichki motivatsiyaga ega bo'lgan odamlar o'z maqsadlariga erishish uchun ko'proq faol ishlaydilar, chunki ular jarayon va natijalardan ilhomlanadi. Ichki motivatsiya maqsadlarga erishishdagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi, chunki odamlar uzoq muddatli muvaffaqiyatga ko'proq sodiqdirlar va hatto qiyin vaziyatlarda ham diqqatni jamlay oladilar. Ichki motivatsiya maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida yuqori ambitsiyalar va yangi maqsadlarga olib keladi. Shunday qilib, yuqori ichki motivatsiya nafaqat hayotiy maqsadlarga erishishga yordam beradi, balki ularga erishish jarayonini yanada qizg'in va mazmunli qiladi.

Ichki motiv va hayot jarayoni motivatsiyasilari musbat aloqani namoyon etishgan ($r=0,285$; $p\leq 0,01$). Bu ikki motiv o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik yuqori ichki motivatsiya hayotning turli jabhalarida yaxshilanishga hissa qo'shishini anglatadi. Buning sababi ichki motivatsiya ko'pincha o'z maqsadlari va qadriyatlarini chuqur anglashdan kelib chiqadi, bu esa hayotga ko'proq ma'no va yo'nalish beradi. Yuqori ichki motivatsiyaga ega bo'lgan odamlar o'z hayotlaridan ko'proq mamnun bo'lishadi, chunki ular haqiqatan ham zavqlanadigan va ularga quvonch keltiradigan

narsalarni qilishadi. Stress va salbiy holatlarga nisbatan ancha chidamli ichki motivatsiyaga ega bo'lgan odamlar to'siq va qiyinchiliklarni yengib o'tishga qodir bo'lishadi. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, ichki motivatsiya nafaqat shaxsiy va kasbiy maqsadlarga erishishga yordam beradi, balki butun hayot jarayonini boyitadi, uni yanada qizg'in va mazmunli qiladi. Ichki motiv va Hayotiy natijaviyligi motivatsiyasilari ijobiy ko'rsatkichlarni qayd etishgan ($r=0,271$; $p\leq 0,01$) (5-jadvalga qarang).

5-jadval

D.A.Leontevning «Hayot mazmuni yo'nalganligi» metodikasining V.Gerbachevskiyning «Intilish darajasini aniqlash» metodikasi bilan korrelyatsion aloqadorligi, (N-314)

Intilish darajasini aniqlash	Hayotiy maqsadlar	Hayot jarayoni	Hayot natijaviyligi	Nazorat lokusi	Hayot boshqaruvchanligi
Ichki motiv	0,224(**)	0,285(**)	0,271(**)	0,212(**)	0,142(*)
Kognitiv motiv	0,424(**)	0,154(**)	0,372(**)	0,319(**)	0,363(**)
Qochish motivi	0,111(*)	0,046	0,112(*)	0,069	0,029
Raqobat motivi	0,139(*)	0,074	0,199(**)	0,144(*)	0,161(**)
Faoliyatni o'zgartirish ushuni sabab	0,126(*)	0,090	0,044	0,114(*)	0,057
O'z-o'zini hurmat qilish motivi	0,330(**)	0,296(**)	0,323(**)	0,340(**)	0,299(**)
Natijalarning ahamiyati	-0,179(**)	-0,290(**)	-0,202(**)	-0,277(**)	-0,241(**)
Vazifaning qiyinligi	-0,109	-0,114(*)	-0,031	-0,069	-0,088
Iroda kuchi	0,358(**)	0,316(**)	0,283(**)	0,377(**)	0,280(**)
Natijalarni erishilganlik darajasini baholash	-0,299(**)	-0,232(**)	-0,256(**)	-0,267(**)	-0,261(**)
O'z imkoniyatlarini baholash	0,403(**)	0,286(**)	0,398(**)	0,367(**)	0,364(**)
Quvvatni safarbar etganlik darajasi	0,276(**)	0,131(*)	0,285(**)	0,242(**)	0,322(**)
Kutilayotgan natijalar darajasi	0,203(**)	0,255(**)	0,149(**)	0,153(**)	0,219(**)
Natijalar namunasi	0,125(*)	0,068	0,095	0,130(*)	0,163(**)
Tashabbuskorlik	0,106	0,062	0,111(*)	0,128(*)	0,045

Izoh: * $p\leq 0,05$; ** $p\leq 0,01$

Ichki motivatsiya hayotning yuqori natijalariga va umumiy hayotdan qoniqishga erishishga hissa qo'shadigan kuchli harakatlantiruvchi vositadir. Chunki bunday xususiyatli odamlar ko'pincha sog'lom turmush tarzini olib boradilar va yaxshi psixo-emotsional natijalarga erishadilar, bu esa o'z navbatida ularning boshqa sohalardagi muvaffaqiyatlariga ta'sir qiladi. Ichki motiv va nazorat lokusi motivatsiyasilari musbat natijani namoyon qilishgan ($r=0,212$; $p\leq 0,01$). Ichki motivatsiya va ichki nazorat o'rnatish o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birini qo'llab-quvvatlaydi va muvaffaqiyat va hayotdan qoniqishga hissa qo'shadi. Buni biz ichki motivatsiyaga ega bo'lgan odamlarning ichki nazorat markaziga ega bo'lish ehtimoli ko'proq ekanligini bilan izohlashimiz mumkin, ya'ni ular o'z harakatlari va natijalari uchun o'zlarini javobgar deb bilishadi. Ichki motiv va Hayot boshqaruvchanligi

ko'rsatgichlari ijobiy bo'lgan ($r=0,142$; $p\leq 0,05$). Yuqori ichki motivatsiyaga ega bo'lgan odamlar, ularning harakatlari va qarorlari natijalariga ta'sir qilishiga ishonishadi, bu esa ularning hayotlarini nazorat qilish hissini oshiradi. Yoki yuqori ichki motivatsiya o'z-o'zini tartibga solish va o'z his-tuyg'ulari va harakatlarini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa hayot ustidan nazoratni yaxshilaydi. Yana motivatsiyalangan odamlar o'z hayotlarini yaxshilash uchun yangi imkoniyatlar va yo'llarni izlashda faolroq bo'lishadi. Bu sabablar yuqori ichki motivatsiya insonning hayotini nazorat qilish tuyg'usiga yordam berishini anglatadi (5-jadvalga qarang).

